
TOSHLOQ MFYDA OILAVIY TADBIRKORLAR SAFI ORTMOQDA

So'nggi yillarda Toshloq tumanida aholiga xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish kabi sohalar bilan samarali shug'ullanayotgan tadbirkorlar safi tobora kengaymoqda.

Xususan, tumandagi Toshloq MFYda hokim yordamchisi ko'magi bilan tadbirkorlar soni ortib bormoqda. Mahalla drayveri ishlab chiqarish hisoblangan hududda tadbirkorlik qilish istagini bildirgan fuqarolarga imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

Mahalla hokim yordamchisi Mashhurbek Karimovning qayd etishicha, uning tavsiyasi bilan 2023 yilda 22 nafar fuqaroga imtiyozli bank krediti olish uchun yordam berildi. Natijada 16 ta yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yo'nalishida tadbirkorlik sub'yektlari tashkil etildi. Tadbirkorlar tomonidan yil boshidan buyon jami 46 ta yangi ish o'rinlari yaratilishiga erishildi.

2023-07-19 14:49:02